

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEN KONSEPSIYASI INDIKATORLARI BILAN ALOQADOR KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH

Axadjonova Gulruxsor Toxirjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda men konsepsiyasi indikatorlari bilan aloqador ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish orqali o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirishning psixologik mexanizmlari haqida yoritilgan. Maqola psixologlar, pedagoglar, ota-onalar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: men konsepsiyasi, indikator, integratsiya, kompensatsiya, ko'nikma, malaka.

ФОРМИРОВАНИЕ УМЕНИЙ И КОМПЕТЕНЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОКАЗАТЕЛЯМИ Я-КОНЦЕПЦИИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В статье рассматриваются психологические механизмы развития уверенности в себе у детей дошкольного возраста через формирование умений и компетенций, связанных с показателями Я-концепции и развитием их интеллектуальных возможностей. Статья предназначена для психологов, педагогов и родителей.

Ключевые слова: Я-концепция, индикатор, интеграция, компенсация, навык, компетентность.

FORMATION OF SKILLS AND COMPETENCES RELATED TO THE INDICATORS OF THE CONCEPT OF SELF IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: This article discusses the psychological mechanisms of developing self-confidence in preschool children through the formation of skills and competencies related to the indicators of the self-concept, and the development of their intellectual capabilities. The article is intended for psychologists, educators, and parents.

Key words: self-concept, indicator, integration, compensation, skills, competencies.

KIRISH

Mamlakatimizda bola tarbiyasi borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda bolalarni tarbiyasi borasida, ularning iqtidorini, qobiliyatini ro'yobga chiqarish, oiladagi muhitini o'rganib oilalarga shart-sharoitlar yaratib berish borasida izchil

chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirda bolalarda rivojlanish bosqichida menlik tushunchasini kuchaytirmoq juda zarur va dolzarb vazifa bo'lib nazariy va amaliy muammolarda biridir.

Bola tarbiyasida "men" tushunchasi, ayniqsa bolaning o'z shaxsini, o'zini bilishini va o'ziga bo'lgan hurmatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bolaning o'zini "men" sifatida bilishi, uning ruhiy salomatligini, o'ziga ishonishini va o'zini boshqalardan farqlangan shaxs sifatida qabul qilishini ta'minlaydi.

O'ziga ishonishning rivojlanishi: Bola o'zini "men" deb bilishni boshlaganda, o'ziga bo'lgan ishonch va o'zini qadrlash tuyg'usi rivojlanadi. Bu esa uning o'zini qo'rqmasdan, jadalroq va kreativroq bo'lishiga yordam beradi.

O'zini bilish: "Men" tushunchasi rivojlanishida bola o'zining kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, o'zining istiqbolini tushunadi. Bu esa unga o'zini boshqalar bilan solishtirishni, o'zining o'ziga bo'lgan ehtiyojlarini bilishni va o'ziga mos bo'lgan maqsadlarni belgilashni ta'minlaydi.

Ruhiy salomatlik: Bola o'zini "men" deb bilishni boshlaganda, uning ruhiy salomatligi yaxshilanadi. Bu esa uning stress, o'zini yaxshi his qilish va o'zini boshqalardan himoyalashga yordam beradi.

Boshqalarga bo'lgan munosabat: "Men" tushunchasi rivojlanishi bola boshqalarga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi. Bola o'zini boshqalardan farqlangan shaxs deb biladi va boshqalarning fikrlarini ham qabul qiladi.

Jamiyatda o'rin egallash: "Men" tushunchasi rivojlanishi bola jamiyatda o'zini o'rnini topishga yordam beradi. Bola o'ziga bo'lgan ishonch va o'zini qadrlash tuyg'usi bilan o'zini jamiyatda faol bo'lishga undaydi.

"Men" tushunchasini rivojlantirishga yordam beradigan usullar:

Bolaning o'z fikrini aytishga imkon berish: Bola o'zining fikrini aytishga, o'zining istiqbolini bilishga va o'zini ifodalashga imkon berish.

Bolaning o'zini qadrlashiga yordam berish: Bola o'zini qadrlash, o'zini yaxshi his qilish va o'ziga ishonishga yordam berish.

Bolaning o'zini boshqalardan farqlangan shaxs deb bilishiga yordam berish: Bola o'zini boshqalardan farqlangan shaxs deb bilish, o'ziga mos bo'lgan maqsadlarni belgilash va o'zini boshqalardan himoyalashga yordam berish.

Bolaning o'zini o'zi boshqarishga imkon berish: Bola o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tushunish va o'zini o'zi yo'naltirishga imkon berish.

Bolaning o'zini rivojlantirishga yordam berish: Bola o'zini rivojlantirish, o'zini yaxshilash va o'ziga mos bo'lgan maqsadlarni belgilashga yordam berish.

"Men" tushunchasi bola tarbiyasida eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Bolaning o'zini "men" deb bilishi, uning ruhiy salomatligini, o'ziga ishonishini va o'zini qadrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

"Men" konsepsiyasi – bir butun hosila va uning barcha tarkibiy qismlari mustaqil mantiqiga ega bo'lsa ham, o'zaro chambarchas bog'liqdir. Bu konsepsiya seziladigan va sezilmaydigan jihatlardan iborat va o'zi haqida taqdimotlari, ularning murakkabligi va xilma-xilligi, shaxs uchun ularning subyektiv ahamiyati, shuningdek, ichki yaxlitli va izchillik, uyg'unlik, vaqtga bardoshlilik nuqtaiy nazardan ta'riflanadi.

Adabiyotlarda "Men" konsepsiyasini yagona tafsifi haligacha mavjud emas. Masalan, R. Berne "Men" konsepsiyasini ierarxiyaga asoslangan tuzilma ko'rinishida taqdim etadi. Uning cho'qqisi global "Men" konsepsiyasi shaxsning o'zi haqida tushunchalarini kiritadi. Bu tushunchalar har xil turlariga xos:

1. Real "Men" ("Men kimman");
2. Ideal "Men" ("Meni kim bo'lishni istayman - intilaman).
3. Oynali "Men" ("Meni qanday baholashadi).

Bularning har bir turi bir qator jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi- jismoniy "Men", ijtimoiy "Men", aqliy "Men", emotsional "Men" bo'ladi, shaxsning rivojlanishi nufuzli manba sifatida xizmat qiladi, biroq ular orasidagi jiddiy ziddiyatlar shaxsning ichki mojarolar va negativ qayg'urishlar manbasiga aylanishi mumkin.

Amerikalik psixolog U. Jeyms o'zining psixologik nazariyasida XX asrning boshlaridayoq shaxs "Men" siymosining eng muhim tarkibiy qismi o'zini hurmat qilishi haqiqatan ham erishgan yutuqlarining kishi da'vogarlik qilgan, mo'ljallangan narsalarga munosabati bilan belgilanishi haqida umuman to'g'ri fikr bildirgan edi. U surati individning real muvaffaqiyatlarini, maxraji esa shaxs intilishlarini ifoda etadigan formulani: muvaffaqiyat, o'zini hurmat qilish, intilishlarni taklif etgan edi.

Psixologik muhofaza faqat intilishlar darajasini pasaytirish hollaridan iborat emas. Bu psixologik qulaylikning buzilishi “Men” siymosining mavjud bo‘lishiga xavf tug‘diradigan his-tuyg‘ularni bartaraf etish va uni mazkur holatlar uchun maqbul va mumkin bo‘lgan darajada saqlab qolish maqsadida shaxs qo‘llaydigan alohida yo‘naltiruvchi tizimdan iboratdir. “Psixologik muhofaza” tushunchasiga yaqin “muhofaza mexanizmlari” tushunchasini psixoanaliz maktabining yetakchisi Z.Freyd ishlab chiqqan edi. U bu tushunchani shaxsni biologik mavjudot deb hisoblaydigan mexanistik falsafa nuqtai nazaridan talqin qilgan edi. Z.Freyd kishining ongsiz instinktlari (asosan shahvoniy hirs) ongli “Menning muhofaza mexanizmlari”, shaxsning “ichki senzuras” bilan to‘qnashib qoladi va buning natijasida turli o‘zgarishlarga uchraydi, deb taxmin qilarkan, psixologik muhofazaning noto‘g‘ri talqin etilishiga yo‘l qo‘ygan edi. Masalan psixologik muhofazaning mexanizmlaridan biri o‘z maqsadiga erishish yo‘lidagi g‘ovlarni bartaraf eta olmagan va frustratsiyaga tushgan paytda ro‘y beradigan tajovuzkorlikdan iboratdir. Hayot uslubini ishlab chiqishda boshlang‘ich nuqta odamning o‘zi haqidagi tasavvurlari ekan, o‘zini anglashning individual variativligini ko‘rib chiqish darkor. Insonni o‘zi haqidagi tasavvurlari, g‘oyalari, baholari va xulq-atvor tendensiyalari yig‘indisi “Men” konsepsiyasi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, “Men” konsepsiyasi subyektni o‘zi haqidagi eng umumiy ustanovkalari tizimidir. “Men” konsepsiyasi odamni turli sohalarida muvaffaqiyatini va zaif tomonlarini belgilaydi va 3 ta rolni bajaradi. Birinchidan – shaxsning ichki o‘zaro roziligiga erishishga turtki beradi; Ikkinchidan – odamni tajribasini izohlaydi; Uchinchidan – kutishni manbasi bo‘ladi.

“Men” konsepsiyasi hamma shaxsiy va xarakterli jarayonlarni muvofiqlashtiruvchisi bo‘lib aks etadi. “Men” konsepsiyasi o‘zini kelib chiqishiga ko‘ra asosan fenotipli havotirni irsiy darajasi va nerv tizimi xususiyatlari bilan mustaxkamlanadigan birlashma. Uni U.Djeyms orginal formulasi bo‘yicha hisoblash mumkin. Yoshlikda o‘z-o‘zini baholash tashqi baholar ta’sirida shakllanadi, bu esa keyinchalik interiorizatsiyalanib o‘ziga nisbatan munosabatga aylanadi.

Adabiyotlarda “Men” konsepsiyasini yagona tafsifi haligacha mavjud emas. Masalan, R.Berne “Men” konsepsiyasini ierarxiyaga asoslangan tuzilma

ko'rinishida taqdim etadi. Uning cho'qqisi global "Men" konsepsiyasi shaxsning o'zi haqida tushunchalarini kiritadi. Bu tushunchalar har xil turlariga xos:

1. Real "Men" ("Men kimman");
2. Ideal "Men" ("Meni kim bo'lishni istayman - intilaman).
3. Oynali "Men" ("Meni qanday baholashadi).

Bularning har bir turi bir qator jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi- jismoniy "Men", ijtimoiy "Men", aqliy "Men", emotsional "Men" bo'ladi, shaxsning rivojlanishi nufuzli manba sifatida xizmat qiladi, biroq ular orasidagi jiddiy ziddiyatlar shaxsning ichki mojarolar va negativ qayg'urishlar manbasiga aylanishi mumkin.

Amerikalik psixolog U.Jeyms o'zining psixologik nazariyasida XX asrning boshlaridayoq shaxs "Men" siymosining eng muhim tarkibiy qismi o'zini hurmat qilishi haqiqatan ham erishgan yutuqlarining kishi da'vogarlik qilgan, mo'ljallangan narsalarga munosabati bilan belgilanishi haqida umuman to'g'ri fikr bildirgan edi. U surati individning real muvaffaqiyatlarini, maxraji esa shaxs intilishlarini ifoda etadigan formulani: muvaffaqiyat, o'zini hurmat qilish, intilishlarni taklif etgan edi.

Ma'lumki, surati oshib, maxraji kamayganda kasr kattalashadi. Shu sababli kishi o'zini hurmat qilishini saqlab qolishi uchun ayrim hollarda eng ko'p kuch va g'ayrat sarflashi va o'zini hurmat qilishini saqlab qolishi shart bo'lib, bu ko'pincha murakkab vazifa hisoblansa, boshqa bir yo'li intilishlarining darajasini pasaytirishdan iborat. Bunda hatto eng kamtarona muvaffaqiyatlarga erishganda ham o'zini hurmat qilish hissi yo'qolmaydi.

Insonni o'zi haqidagi tasavvurlari, g'oyalari, baholari va xulq-atvor tendensiyalari yig'indisi "Men" konsepsiyasi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, "Men" konsepsiyasi subyektni o'zi haqidagi eng umumiy ustanovkalari tizimidir. "Men" konsepsiyasi odamni turli sohalarda muvaffaqiyatini va zaif tomonlarini belgilaydi va 3 ta rolni bajaradi.

Birinchidan – shaxsning ichki o'zaro roziligiga erishishga turtki beradi;

Ikkinchidan – odamni tajribasini izohlaydi;

Uchinchidan – kutishni manbasi bo'ladi.

"Men" konsepsiyasi hamma shaxsiy va xarakterli jarayonlarni muvofiqlashtiruvchisi bo'lib aks etadi. "Men" konsepsiyasi o'zini kelib chiqishiga

ko'ra asosan fenotipli havotirni irsiy darajasi va nerv tizimi xususiyatlari bilan mustaxkamlanadigan birlashma. Uni U.Djeyms original formulasi bo'yicha hisoblash mumkin. Yoshlikda o'z-o'zini baholash tashqi baholar ta'sirida shakllanadi, bu esa keyinchalik interiorizatsiyalanib o'ziga nisbatan munosabatga aylanadi.

Shu bilan birga eksperimental ma'lumotlarga asoslangan boshqa nuqtayi nazar ham mavjud. Ushbu nuqtayi nazar tarafdorlarining fikriga qaraganda, voyaga yetmagan qonunbuzarlarning o'ziga-o'zi baho berish darajasi boshqa o'smirlarga nisbatan pasroq. Teskari natijalar olingan tadqiqotlarning ko'pchiligi esa, ushbu konsepsiya tarafdorlarining fikricha, metodik nuqtai nazardan to'g'ri emasdir.

Bir qator tadqiqotlarda ko'rsatilgandek, yosh jinoyatchilarda hamda "qiyin" o'smirlar bilan shug'ullanuvchi jmoat tashkilotlari e'tiboriga tushganlarda "Men" konsepsiyasi salbiydir. Ushbu yo'nalishdagi ishlarda ko'rsatilganidek, yomon "Men" konsepsiyasi (o'ziga ishonchning zaifligi, rad javobi eshitishdan qo'rqish, o'z-o'ziga baho berishning pasligi) shakllangach, fe'l-atvorning buzilishiga olib keladi. Bunda salbiy "Men" konsepsiyasining quydagi ta'sirlari ajratib ko'rsatiladi. (X.Remshmidt):

O'z-o'ziga bo'lgan hurmatning pasayishi va ko'pincha buning oqibatida ijtimoiy tanazzul, agressivlik va jinoyatchilik.

Qiyin vaziyatlarda konformistik reaksiyalar stimulyatsiyasi bo'lib, bunday yosh odamlar guruhlarining ta'siriga juda tez tushadi va jinoiy hatti-xarakatlarga kirishib ketadi.

Idrokda chuqur o'zgarishlar o'zini salbiy baholaydigan yosh insonlar yaxshi ishlar bajarayotganini bazo'r idrok etadi, chunki o'zini bunday ishlarga qodir emas deb hisoblaydi.

Umuman olganda, qayd etib o'tish kerakki, zamonaviy psixologiyada o'smir qonunbuzarning o'ziga past yoki yuqori baho berish haqidagi ma'lumotlarda ma'lum qarama-qarshiliklar ko'zga tashlanadi. Bunday ziddiyat paydo bo'lganda, fanda boshqacha konsepsiya, tavsifiy kuchga ega va ziddiyatlarni hal qiluvchi uchinchi yondashuvni ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj dolzarblashadi.

Zigmund Freyd shaxs nazariyasini rivojlantirish barobarida boshqa olimlarning fikrlariga qarshi chiqqan holda, nisbatan boshqacharoq tarzda asoslab bergan. Uning fikriga ko'ra «indivud — doimo jamiyat bilan nizoda bo'ladi» deb

ta'kidlaydi. Ya'ni «insonning biologik ehtiyojlari (ayniqsa jinsiy ehtiyojlari) jamiyatdagi mavjud madaniyat me'yorlariga zid bo'lib, shaxs o'z ehtiyojlarini qondirish jarayonida bu me'yorlar bilan albatta to'qnash keladi.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi, ya'ni o'zidagi mavjud sifatlarni konkret baholash jarayoni ko'pincha shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi jamiyat me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan yomon sifatlarni anglamaslikka, bekitishga harakat qiladi. Hattoki bunday tasavvurlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos psixologik himoyalash mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada men konsepsiyasi past bolalarda men konsepsiyasini kuchaytirish yo'llari, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida menkonsepsiyasi jarayoni boshlanishi men konsepsiyasining turlari; rivojlanishda menligi past bo'lgan bolalarda ijtimoiylashuv muammolari, men konsepsiyasi past bolalarning ijtimoiy – psixologik sharoitlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Maqola talabalar, pedagoglar, inkliyuziv ta'lim muammosi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

L.S. Vigotskiyning ta'rifiga ko'ra, o'z-o'zini anglash bu — insonning o'zi haqidagi tasavvurlarining dinamik tizimi bo'lib, o'zining jismoniy, intellektual va boshqa turli sifatlarini anglash bilan yuzaga keladi. Ushbu sifatlariga o'z-o'zining beradigan bahosida tashqi omillar, munosabatlar ham ta'sir etishi mumkin.

O'z-o'zini anglash ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlash bu muammoning aynan ijtimoiy psixologik mohiyatga ega ekanligini anglashga yordam beradi.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi, ya'ni o'zidagi mavjud sifatlarni konkret baholash jarayoni ko'pincha shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi jamiyat me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan yomon sifatlarni anglamaslikka, bekitishga harakat qiladi. Hattoki bunday tasavvurlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini

o'ziga xos psixologik himoyalash mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi.

Z.Freydning klassik psixoanaliz nazariyasiga ko'ra, «Men» konsepsiyasi inson psixikasining strukturali komponenti hisoblanadi, boshqacha aytganda, Zigmund Freyd shaxs shakllanishining psixik strukturasini uch asosiy qismga bo'lib ko'rsatadi:

1. Id ("U"). Bu shaxsga berilgan tug'ma reflekslar bilan bogliq holda mavjud bo'lgan instinktiv ehtiyojlarning asosi. Rohat olish uchun yo'naltirilgan energiya manbayidir. "U" organizmning ovqatlanishi va kerakli ehtiyojlarini qondirish funksiyasini bajaradi.

2. Ego ("Men"). Insonning atrof-muhitda o'zini tutishini, xulq-atvorini yo'lga solib turadigan funksiyani bajaradi. Ego reallik prinsipi orqali boshqariladi. Masalan, inson och qolganda, Ego uni zaharli mevalarni iste'mol qilishdan asrab qoladi, ya'ni taqiqlab qo'yadi.

3. Superego ("Oliy Men"). U ideal ota-ona funksiyasini bajaradi. Superego insonning xulq-atvorini yo'lga solib turadi va ota-onalarning standartlariga asosan uning jamiyatda shakllanishiga yordam beradi.

Bu uchta komponent bolaning shaxs bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar reallik prinsipiga, shuningdek, Ego va Superegoning talablariga rioya qilishlari kerak. Ego Super egoning jazolashlari va xatti-harakatlari uchun javobgardir. Shu orqali inson o'z aybini va mag'rurligini his qiladi. Freyd nazariyasiga kola, jamiyatda tarixan tarkib topgan odatlar, axloqiy prinsiplar, ijtimoiy "senzura"ning mavjudligi tufayli jinsiy mayl to'g'ridan to'g'ri to'siladi. Shuning uchun ham ba'zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayl bilan anglab turilgan vaziyat o'rtasida ichki ruhiy nizo paydo bo'ladi, bunday to'qnashuvlar ba'zan barqaror asab kasalliklariga (nevrozga) olib keladi.

XULOSALAR

"Men" konsepsiyasi (inglizcha self-concept) – insonning o'zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanib boruvchi tizimi, uning tarkibiga:

a) o'zining jismoniy, intellektual, xarakterologik, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarini idrok qilish;

b) o'z-o'ziga baho berish;

v) shaxsiyatga tasir o'tkazuvchi tashqi omillarni subyektiv idrok etishkiradi.

"Men" konsepsiyasi tushunchasi 1950- yillarda fenomenologik, gumanistik psixologiya yo'nalishlari ichida paydo bo'lgan.

(A.Maslou, K.Rodjers), bixeviorist va freydistlarga ko'ra, insonning "Men"i uning axloq va rivojlanishning asosiy omili sifatida umumiy ko'rib chiqishiga intilishgan.

"Men" konsepsiyasi shakllanishiga simvolik interaksionizm (Ch.Kuli, D.Mid) va identifikatsiyalash konsepsiyasi (E.Erikson) muhim ta'sir ko'rsatgan.

Biroq birinchi nazariy ishlanmalar shu yo'lda U.Djeyms tomonidan olib borilgan. U birinchi bo'lib, shaxsning global "Men" ni (Self) o'zaro bog'langan "Men-yaratuvchi" (I) va "Men-obyekt"ga (Me) bo'lgan. "Men" konsepsiyasini ko'pincha yo'naltirilgan tushunchalar sifatida aniqlanadi, uning ichida uchta tarkibiy qisimlarni ajratadi;

Kognitiv qism – "Men" qiyofam (ingl. Self-image), o'z ichiga shaxsning o'zi haqida taassurotni qamrab oladi;

Emotsional-qadriyatlar (affektiv) –o'ziga shaxs sifatida, o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati. Bu tarkibiy qism, boshqacha aytganda, o'z-o'ziga baho berish tizimini ichiga o'zini baholash tizimi (angl. self-esteem) kiradi.

Axloqiy fe'l-atvor qism, bu kognitiv va baholash qismlarining fe'l-atvorida namoyon bo'lishini xarakterlaydi.

Masalan: nutqda, o'zi haqidagi fikrlarda o'zini anglab ko'rsatadi Emotsional-qadriyatlar (affektiv) –o'ziga shaxs sifatida, o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati. Bu tarkibiy qism, boshqacha aytganda, o'z-o'ziga baho berish tizimini ichiga o'zini baholash tizimi (angl. self-esteem) kiradi.

Axloqiy fe'l-atvor qism, bu kognitiv va baholash qismlarining fe'l-atvorida namoyon bo'lishini xarakterlaydi. Masalan: nutqda, o'zi haqidagi fikrlarda o'zini anglab ko'rsatadi. "Men" konsepsiyasi"(inglizcha self-concept) – insonning o'zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanib boruvchi tizimi, uning tarkibiga: a) o'zining jismoniy, intellektual, xarakterologik, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarini idrok qilish; b) o'z-o'ziga baho berish; v) shaxsiyatga tasir o'tkazuvchi tashqi omillarni subyektiv

idrok etishkiradi. "Men" konsepsiyasi tushunchasi 1950- yillarda fenomenologik, gumanistik psixologiya yo'nalishlari ichida paydo bo'lgan. (A.Maslou, K.Rodgers), bixeviorist va freydistlarga ko'ra, insonning "Men"i uning axloq va rivojlanishning asosiy omili sifatida umumiy ko'rib chiqishiga intilishgan. "Men" konsepsiyasi shakllanishiga simvolik interaksionizm (Ch.Kuli, D.Mid) va identifikatsiyalash konsepsiyasi (E.Erikson) muhim ta'sir ko'rsatgan. Biroq birinchi nazariy ishlanmalar shu yo'lda U.Djeyms tomonidan olib borilgan. U birinchi bo'lib, shaxsning global "Men" ni (Self) o'zaro bog'langan "Men-yaratuvchi" (I) va "Men-obyekt"ga (Me) bo'lgan. "Men" tushunchasi bola tarbiyasida eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Bolaning o'zini "men" deb bilishi, uning ruhiy salomatligini, o'ziga ishonishini va o'zini qadrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismoilov N, Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya (O'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2013. – B.168
2. G'oziyev E.G' Sotsial psixologiya. – Toshkent, 2012. – B.316
3. V.Karimova, O.Xayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi. – T.Sharq, 2007. – B.154
4. Mirzadjonovna.M.N.Sattarovich, J.U.B, & Yarashovich, O.L.(2022) O'ZINI ANGLASH, O'ZINI BAHOLASH, VA SHAXSIY DAVOGARLIK DARAJASI. Gospadarka I Innovacje, 23, 281-286
5. Odilboyevich, J.X.(2024) O'SMIRLIK YOSH DAVRIDA SHAXSDA SUITSID HOLATLARINI PROFILAKTIKA QILISH YO'LLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 47(3) 11-114 Ю
6. Odilboyevich, J.X, & Yuldashboyevich, A .S.(2024) SHAXSNING PSIXOLOGIK SENSITIVLIK DARAJASI VA UNING PSIXOLOGIK TIPOLOGIYASI. . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 47(3) 145-148.